

DAMINOV Bahromjon

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Arab tili va adabiyotial-Azhar kafedrasi
o'qituvchisi*

YUSUPOVA Dilorom

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Filologiya va tillarni o'qitish (arab)
yo'nalishi II bosqich talabasi*

ARAB TILINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

ОСОБЕННОСТИ В ИЗУЧЕНИИ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

FEATURES IN LEARNING ARABIC

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilini o'rganish jarayonida o'zbekabon talabalar uchun mavjud sharoitlar, qulayliklar, paydo bo'lishi mumkin bo'lgan to'siqlar, qiyinchiliklar, ularni hal etishda o'qituvchi va talabalarining vazifalari xususida so'z boradi. Xususan arab tilini o'rgatishda qadimda va hozirgi kunda qo'llanilayotgan uslublar, metodlar va texnologiyalar, jumladan ularning o'ziga xos yutuq va kamchiliklari haqida ham qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: grammatika, o'zlashma so'zlar, grammatik manbalar, arab tili yo'nalishi, arab tili manbalari, sarf, nahv, balog'at, til o'rganish uslublari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются условия, преимущества, возможные препятствия и трудности для узбекоязычных студентов в процессе изучения арабского языка, а также роль преподавателей и студентов в их решении. В частности, будут кратко описаны методы, приемы и технологии, используемые в древнем и современном преподавании арабского языка, включая их конкретные преимущества и недостатки.

Ключевые слова: Грамматика, идиомы, грамматические источники, арабский язык,

арабские источники, сарф, наху, балагат, методы изучения языка.

Annotation: This article discusses the conditions, advantages, possible obstacles and difficulties for Uzbek-speaking students in the process of learning the Arabic language, as well as the role of teachers and students in solving them. In particular, the methods, techniques and technologies used in the ancient and modern teaching of the Arabic language will be briefly described, including their specific advantages and disadvantages.

Keywords: Grammar, vocabulary, grammatical sources, Arabic language, Arabic sources, sarf, nahw, balogat, language learning methods.

KIRISH

Bir qancha chet tillari qatorida arab tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib borayotgani hech kimga sir emas. Olti dunyo tillaridan biri bo'lgan mazkur til jahon dini bo'lmish islomning va o'rta asrlarda sharq mamlakatlarida rivojlangan ilmning tili hamdir. Shu sababdan uni o'rganish uchun sabablar va maqsadlar bisyor.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda arab tilini o'rganishni istovchi o'quvchilar uchun barcha shart-sharoitlar bor. Arab tili grammatikasi, so'zlashuv, yozma nutqni rivojlantirish uchun kitoblar, lug'atlar sotuvda mavjud. Kitob do'konlarida arab tili kitoblari uchun alohida joylar ajratilgan. Bundan tashqari so'nggi yillarda qaysi soha bo'lmasin, elektron holatdagi kitoblardan foydalanish urfga kirgan. O'quvchi o'zi istagan, imkoniyati yetadigan darajada arab tili manbalaridan foydalanishi mumkin. Xususan, arabic.uz saytidan ham o'zbekabon foydalanuvchilar uchun arab tili ta'limiga oid istalgan kitobning elektron shaklini topish mumkin. O'quvchilardan esa faqat ularni o'z darajasiga qarab tanlay bilish va kitoblarni o'rganishdagi izchillikni yo'lga qo'yish talab etiladi, xolos. Eshitib tushunish va gapirish ko'nikmalarini

shakllantirish va rivojlantirishda esa arab dunyosi arab tilini o'qitish uchun mo'ljallangan aljazeera.com kabi saytlardagi audio va video ko'rinishdagi ma'lumotlar yaxshi ko'mak bera oladi.

Ajdodlarimiz ijod qilgan, avvalgi taraqqiyot davrlarida asosiy til bo'lib xizmat qilgan arab tilini va u orqali noyob qadimiy ilmiy manbalarni o'rganish, tarjima qilish muhim masalalar sanaladi. Shu sababdan mazkur tilni o'qitish, mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish uchun davlat miqyosida ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida arab tili yo'nalishi uchun ajratiladigan kvotalar soni ham yildan-yilga oshib bormoqda. Avvallari arab tili mutaxassislari faqat Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida tayyorlangan bo'lsa, 2009-yildan beri Samarqand davlat chet tillari institutida hamda 2018-yildan boshlab O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida "Filologiya va tillarni o'qitish: arab tili" yo'nalishi faoliyat yuritib keladi. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida esa 2019-yildan boshlab "Tarjima nazariyasi va amaliyoti: arab tili" yo'nalishi ochilgan. Bundan tashqari 2020-yilda arab tili yo'nalishlari qatoriga "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik: arab tili" yo'nalishi ham qo'shilib, bu yo'nalish mutaxassislarni tayyorlashni Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'z zimmasiga oldi. Bu ma'lumotlar arab tili ta'limiga katta e'tibor ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, islomiy bilim yurtlarida, viloyatlar va poytaxtimizda faoliyat olib borayotgan xususiy ta'lim dargohlarida ham arab tili o'qitiladi. Ayniqsa, poytaxtimiz Toshkent shahrida bir qancha til markazlari mavjud bo'lib, ularda ingliz, rus, nemis, xitoy kabi jahonga mashhur tillar qatorida arab tiliga ham qiziqish bildirayotgan o'quvchilar talaygina. Qolaversa, qo'shimcha ta'lim olishni istovchilar internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlarda berib boriladigan darslar, onlayn ma'ruzalar orqali ham bilimlarini boyitib borishlari mumkin bo'ladi.

Internet sahifalarni ko'zdan kechirar ekanmiz, arab tilining fazilatlarini, uni o'rganishning foydalari va oson usullari kabi maqolalarga duch kelamiz. Xususan, mqaall.com saytida e'lon qilingan "Arab adabiy tilini o'rganish" nomli maqolada quyidagi

foydali tavsiyalar berib o'tilgan: Tinglab tushunish mahoratini oshirishda ko'proq adabiy tildagi ma'ruzalar, suhbatlar, hujjatli filmlarni tinglash mumkin. Tinglashni mashq qilish, shuningdek, arab tilida insonlar bilan muloqot qilishni va hatto ularga shu tilni o'rgatishni tasavvur qilish boshqalar oldida so'z topishga qiynalish va xijolat chekish kabi muammolarning oldini olib, miyada jumla tuzish uchun so'zlarni tezda topishga yordam beradi [15]. Shuningdek, maqolada klassik arab tilini o'rganishni boshlagan insonlarga ba'zan oson, ba'zan esa qiyin bo'lib ko'rinishi, shunday bo'lsa-da taslim bo'lmasdan bosqichma-bosqich o'rganishda davom etish kerakligi, har kuni kamida beshta yangi so'z yodlab, ularni jumlada qo'llay olish, o'qish va yozishni rivojlantirish uchun esa kuniga hech bo'lmaganda bir sahifa kitob o'qish, keyinchalik sahifa va boblar miqdorini orttirib borish, ko'p, tez-tez yozib turish husnixatni chiroylilashuviga va diqqatni bir joyga jamlashga ko'mak berishi kabi muhim tavsiyalar o'rin olgan.

Har qanday sohada bilim olishda ustozlarning tutadigan o'rni beqiyos. O'zbekistonda bir qator arabshunos olimlar, arab tili mutaxassis va tarjimonlarining til sohasidagi xizmatlari katta. Ular oliy ta'lim muassasalarida va madrasalarda faoliyat olib boradilar. Chet tilini aynan mazkur til ona tilisi bo'lgan ustozlar (native speaker) dan o'rganish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan O'zbekiston turli xorijiy mamlakatlar bilan, xususan arab tili bo'yicha Misr Arab Respublikasi bilan hamkorlik qiladi. Ushbu hamkorliklar doirasida mazkur davlatdan mutaxassislar jalb etilgan bo'lib, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida olti nafar, Toshkent Davlat Sharqshunoslik universitetida ikki nafar, O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetida ikki nafar va Samarqand Davlat Chet tillari institutida bir nafar arab millatiga mansub ustozlar faoliyat yuritib kelmoqdalar.

Arab tilini o'rganishdagi qulayliklardan yana biri – o'zbek tiliga o'zlashgan arab tilidagi so'zlar. VII-VIII asrlarda islom dinining O'rta Osiyoda tarqalishi, shu bilan bir qatorda arab tilining kirib kelishi va tarqalishi, o'sha davrda

arab tilining davlat tili bo'lganligi natijasida arab tilidan o'zbek tiliga ko'pgina so'zlar kirib kelgan. Shu sababli so'z yodlash mobaynida o'quvchi arab va o'zbek tillaridagi so'zlarining bir xilligi yoki o'xshashligidan zavqlanadi.

Masalan, كِتَاب (kitaab), دَفْتَر (daftar), قَلَم (qalam), إِقْتِسَاد (iqtisaad), عِلْم (ilm), تَفَكُّر (tafakkur), مَعْرِفَةٌ (ma'rifat) kabi so'zlarni yodlash o'quvchiga qiyinchilik tug'dirmaydi.

Ba'zida esa bir butun gap ham tarjimada deyarli o'zgarmaganiga guvoh bo'lish mumkin:

–[ihtarim muallimaka daiman] احْتَرِمُ مُعَلِّمَكَ دَائِمًا

Muallimingni doimo ehtirom qil

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, barcha chet tillari qatori arab tilidan ta'lim olishga kirishgan o'quvchining oldida ta'lim jarayoni davomida turli qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Avvalo, harflarning to'rt ko'rinishda yozilishi, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan tovushlarni talaffuz etishga qiynalsa, keyinchalik grammatikani o'rganishni boshlagach, ba'zi qoidalarining murakkabligidan, tushunarsizdek ko'rinishidan mushkullik seziladi. Bundan tashqari, arab tilidagi manbalarning harakatlarsiz yozilishi ham o'quvchi ko'z o'ngida ulkan tog' kabi ko'rinadi. Bunday omillarning ko'pligi aksariyat talabalarning "Arab tilini o'rganish qiyin ekan", degan xulosaga kelishlariga sabab bo'ladi va ba'zan ayrim insonlarning bu tilni o'rganish fikridan voz kechishigacha boradi. Xo'sh, nima qilish kerak?

Bugungi kunda arab tili ta'limini shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Birinchi uslub – sarf-nahv uslubi. Bunda o'quvchi avvalo harflarni, so'ng birin-ketin sarf, nahv, balog'at kabi ilmlarni ketma-ketlikda o'rganadi. Bu uslubda o'qigan o'quvchi, asosan, islomiy ilmlarni o'rganishda, yozma nutqda, tarjimada ko'proq muvaffaqiyatga erishadi. Lekin tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarida qiyinchilikka uchrashi mumkin. "Janohu-t-tolib", "Ad-durusu-n-nahviyya", "Taysiru-s-sarf", "Aysaru-s-sarf", "Mabdau-s-sarf", "Mabdau-n-nahv" kabi kitoblar asosiy darsliklardir.

2. Ikkinchi uslub – boshqa til bilan qiyoslab o'qitish uslubi. Sobiq Ittifoq davrida barcha

sohalar qatori arab tili sohasida ham rus olimlari o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bu uslubda ta'lim jarayoni sarf, nahv kabi bo'limlarga ajratilmaydi. Morfologiya va sintaksis sifatida umumiy arab tili grammatikasi nomi ostida o'rganiladi. So'nggi yillarda nashr etilgan M. Hasanov, A. Abdujabborov, N. Ibrohimov, M. Yusupov kabi arabshunos olimlarning darsliklarida arab tili qoidalari o'zbek tili grammatikasi qoidalariga qiyoslab o'rgatiladi. Bu uslubda ham o'qish, yozish, tarjima qila olish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

3. Uchinchi uslub – zamonaviy uslub. Bu uslub avvalgi ikki uslubdan tezkorligi, yozish, o'qish, tinglab tushunish, gapirish ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida shakllantirishga mo'ljallanganligi, qoidalar sodda va umumiy qilib berilganligi va izchilligi bilan ajralib turadi. "Al-arabiyatu bayna yadayka", "At-takallum", "Al-kamil" darsliklari shu uslubda ta'lif etilgan kitoblardir.

Birinchi uslub diyorimizda qadimdan qo'llanib kelingan uslub hisoblanadi. Bugungi kunda faqatgina shu uslub bilan chegaralanadigan talabalar haqida butun umrini faqat qoidalarini o'rganishga sarflab, "arab tilida tuzukroq gapira olmasligi", eshitib tushunish ko'nikmasini shakllantira olmasligi, zamonaviy matnlarni tushunishga qiynalishi kabi tanqidiy fikrlar tez-tez quloqqa chalinadi. Bunga asosiy sabab aynan bu ilmlarga oid manbalardagi misollar ham asosan tarixiy, o'z zamonasiga xos ravishda berilganligidandir. Ammo, bu usulni rad etib ham bo'lmaydi, chunki Qur'oni Karim, hadislar va boshqa islomiy va ilmiy manbalarni to'g'ri o'qishda, tarjima qilishda, tadqiq qilishda sarf, nahv, balog'at ilmlari asosiy omil hisoblanadi.

Arab tilini boshqa tilga, xususan ona tilimizga qiyoslab o'rganishning ham bir qancha yutuq va kamchiliklari mavjud. Bu uslub o'zbek tili grammatikasini yaxshi bilgan o'quvchiga qulayliklar yaratadi. Ammo arab tilidagi "izofa" o'zbek tilidagi aniqlovchili birikmaga to'g'ri keladi, deb tushuntirish o'zbek tili grammatikasini bilmaydigan o'quvchiga arab tilini o'rganish bilan bir qatorda ona tili darsliklarini varaqlashga majbur qiladi. Bu balki yaxshidir, biroq bu uslubda o'qigan

talaba keyinchalik sarf va nahv kitoblaridagi qoidalarining asliy atamalarini tushunishga qiynalishi turgan gap. Ushbu darsliklarda fe'llarning hozir iste'molda bo'lgan asosiy 10 bobi keltiriladi. Sarf kitoblarida esa mukammalroq bayon etilgan bo'lib, mazkur 10 bobning 1-bobini 6 ta bobda ko'rishimiz mumkin. Uch o'zakli va to'rt o'zakli fe'llar zoida harflar qo'shilganlari bilan umumiy 22 bobga ajratilgan.

Uchinchi uslubdagi darsliklarda sarf va nahv qoidalari o'z atamalari bilan umumiy va sodda ko'rinishda bo'ladi. Tinglash va nutqni o'stirish uchun ham yetarli materiallar beriladi. Ushbu uslub har tomonlama jozibador ko'ringani bilan bir qator kamchiliklari ham yo'q emas. Bu kabi darsliklar zamonaviy bo'lganligidan undan olingan bilimlar asosan, bugungi kundagi nashrlar, ommaviy axborot vositalarida beriladigan ma'lumotlarni tushunishda, arablar bilan muloqot qilishda ko'mak berishi mumkin. Klassik matnlarni o'qishda va tadqiq qilishda bu darsliklarning o'zi bilangina chegaralanish tavsiya etilmaydi.

XXI asrda zamonaviy darsni axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. AKT o'quvchilarning o'rganilayotgan muammolarga qiziqishini oshirishda ajralmas yordamchiga aylanadi va vizual fikrlashni rivojlantiradi. Bularning barchasi yangi bilim tizimiga, ongning o'zgarishiga, dunyoning butun manzarasini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Ta'lim jarayonida AKT dan foydalanish o'quvchilarning bilish, aqliy va mustaqil faoliyatini faollashtirish, o'quv jarayonini faollashtirish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari nafaqat o'quv ishining shakllari va usullarini o'zgartirish, balki ta'lim texnologiyalarini sezilarli darajada o'zgartirish va boyitish imkonini beradi. Arab tili darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish rivojlanish, ta'lim va tarbiyaning turli shakllaridan foydalanishda yuqori samara bermoqda [1:27-31].

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, arab tilini mukammal o'rganishni maqsad qilgan talaba aynan bir uslubda qotib qolmay, boshqa uslubdagi darsliklarga ham murojaat etishi, izchillik va ketma-ketlikka amal qilishi zarur deb xulosa

qilish mumkin. Avvalambor, talaba arab tilini nima maqsadda o'rganayotganini aniqlashtirib olishi lozim. Agar u arab davlatlariga sayohat qilishni niyat qilgan bo'lsa uchinchi uslubdan foydalanishi kifoya. O'zbek tili, rus tili yoki ingliz tili grammatikasini yaxshi biladi-yu, o'sha til bilan qiyoslab o'rganish unga qulay bo'lsa, ikkinchi uslubni tanlagani ma'qul va bu usuldan boshlang'ich omil sifatida foydalanishi lozim. Qur'oni Karim, hadislar va tarixiy ilmiy manbalarni o'rganishni istaydigan bo'lsa, birinchi uslubga ko'proq urg'u berishi maqsadga muvofiq. Agar arab tilidan yetuk mutaxassis bo'lishni, kelajakda shu sohada faoliyat olib borishni, o'quvchilarga shu tildan ta'lim berishni maqsad qilgan bo'lsa, uchala usulni ham ketma-ketlik, bir-biriga qiyoslash, soddadan murakkabga o'tish metodlari orqali o'zlashtirishi zarur. Chunki, har qanday soha mutaxassisining o'z sohasida mukammal bo'lishga intilishi, berilishi kutilajak savollarga avvaldan javob tayyorlab qo'yishi, agar o'qituvchi bo'lsa, o'quvchilarining yuksak saviyada bilim olishiga e'tibor qaratishi, ularning ilmga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishi eng ahamiyatli vazifalari hisoblanadi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatga e'tibor qaratsak. So'nggi yillarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, elektron taqdimotlardan foydalanish aksariyat o'qituvchilarning asosiy vazifasiga aylandi. Zamonaviy imkoniyatlardan foydalanish, o'quvchining diqqatini tortishga intilish yaxshi albatta. Lekin, faqat taqdimotlar bilan dars berishga urg'u berib, asosiy darslik va kitoblarni chetga surib qo'yuvchilar ham yo'q emas. Har qanday ilmni, ayniqsa murakkab bo'lgan chet tilini o'qitishda asosiy va qo'shimcha darsliklar, manbalar bo'lishi shart. Chunki o'quvchi bir qoidaga duch kelganda "Falon slaydda bunday ma'lumot bor edi", deyishidan ko'ra, "Falon darslikda shunday kelgan edi" deb eslashi mantiqliroq va ishonarliroq. Darslarni kitobdan o'qish va yozish dars qilishning eng samarali usulidir. Bundan tashqari, har qanday darslikda mavzular ketma-ketlikda, soddadan murakkabga qarab beriladi. Turli slaydlardan esa qo'shimcha,

darsni o'zlashtirishga yordam beruvchi omil sifatida foydalanish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytib o'tish mumkinki, arab tili lug'at boyligi, go'zalligi, fasohati borasida dunyodagi hech bir tilga o'xshamaydi. Uning fazilatlarini sanasak, adog'iga yetish mushkul. Zero, Qur'oni karimning aynan shu tilda nozil bo'lgani uning fazliga kifoya qiladi. Ushbu go'zal tilni o'rganish va o'rgatish baxti nasib etgan inson borki, bundan zavq oladi. Bu yo'lda barcha uchragan qiyinchiliklarni yengib o'tishga, barcha dovonlardan oshib o'tishga intilish esa unga muhabbati ziyoda bo'lgan insonlargagina xosdir. Bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan bir davrda tolibi ilmga dastak, qanot, ko'prik bo'lib xizmat qiluvchi barcha omillar bor. Undan faqat intilish, jiddu jahd, tirishqoqlik talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Daminov B. (2022) Sposobi i metodi prepodavaniya arabского yazika // "Islom tafakkuri ": 2022. – № 9(1), – P. 96-99.
- Sun'atulloh Bekpo'lat. Mabda' ul-qiroat. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2019.
- Hasanov M. Arab tili. –Toshkent: Global books, 2019.
- صابر المشرفي، سعد الخولي، أبو أويس محمود. التكلم. القاهرة، 2018.
- Ариан М.А. и др. Методика преподавания иностранных языков: Общий курс. – Н.-Новгород: НГЛУ, 2004.
- Беляева Л.А., Иванова Н.В. Презентация Power-point и ее возможности при обучении иностранным языкам // Научный журнал: "Иностранные языки в школе". – 2008, № 4.
- Душеина Т.В. Проектная методика на уроках иностранного языка. ИЯШ, 2003, №5.
- Закиров Р.Р., Мингазова Н.Г., Мухаметзянов И.М. Программа по арабскому языку для школьников 5-11-х классов общеобразовательных школ и гимназий. Казань: Издательство МОН РТ, 2010.
- Daminov B. (2019) "Actual problems of modern arabic language // "The Light of Islam: Vol. 2019 : Iss. 4 , Article 20.
- Isamutdinov A.B. (2020) Sources of words learned from other languages to arabic // Archive of Conferences, 2020 – N 9(1), – P. 96-99.
- Мингазова Н.Г., Закиров Р.Р., Мухаметзянов И.М. Арабский язык. 6 класс: учебное пособие для общеобразовательных учреждений. Казань: Магариф, Вакыт, 2013.
- Kazakbayev A. (2019) Osobennosti prepodavaniya inostrannix yazikov: problemi i metodi// – Tashkent: Journal "The Light of Islam: 2019, – N 4 , Article
- Подопригорова Л.А. "Использование интернета в обучении иностранным языкам" // Научный журнал: "Иностранные языки в школе". 2003, №5.
- Салистра И.Д. Очерки методов обучения иностранным языкам. Москва: Высшая школа, 1966.
- <https://mqaall.com/learn-standard-arabic/>
- Aim.uz
- ziyouz.com
- Oliygoz.uz
- Samdchti.uz